

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
474 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayeich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayeich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayeich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayeich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlar va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
"Intellectual mulk", "Intellectual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevena	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochidiyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики	242
Бозорова Ирина Жуманазаровна	
Mahalliyashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida)	247
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish	254
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов	259
Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна	
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari	266
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni	276
Raxmatov Aziz Tolipovich	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish	280
Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash	286
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari	290
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi	295
Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari	299
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari	306
Kobilova Zebo Bobokulovna	
Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами	311
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar	318
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Особенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья	324
Маджидов Абдинаби Аманович	
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari	330
Umarova Durdona Abdumannabovna	
Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi	335
Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li	
Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат"	340
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili	347
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний	354
Утемуратова Магрифа Пердебаевна	
Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish	359
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li	



Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati.....	363
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	
Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....	369
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili	374
Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich	
O'zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari	379
Sayfiyev Jasur Ravshanovich	
Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko'rsatkichlari.....	384
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Tijorat banklarining moliyaviy risklari	390
Suxrob Narzullayevich Xolmatov	
Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellash va tahlil qilish.....	395
Djabbarov Rahimjon Abdullayevich	
To'qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlanishida asosiy ko'rsatkichlarini prognozlash algoritmi	400
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida qarz mablag'lari va xorijiy valyuta ayirboshlash bozorlarining ta'minot va talab mexanizmlari: nazariy asoslar va amaliy tahlil	406
Xalilova Sevaraxon Alijon qizi	
Tijorat bankining moliyaviy barqarorligini shakllantiruvchi va unga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash	414
Umarov Davron Shavkatovich	
O'zbekistonda raqamli bozorlar rivojlanishi: asosiy tendensiyalar va raqobat holati	424
Saparov Islom O'lmasovich	
Rivojlangan mamlakatlar soliq mexanizmini qo'llash orqali O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini barqaror rivojlantirish	430
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
RAQAMLI TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNI JORIY ETISHDA QO'LLANALADIGAN IQTISODIY MODEL.....	437
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
NONPARAMETRIC SEQUENTIAL CONFIDENCE ESTIMATION BY FIXED-WIDTH CONFIDENCE INTERVALS: ASYMPTOTIC CONSISTENCY AND ASYMPTOTIC EFFICIENCY	444
Tursunov Gafur Tairovich	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	453
A.A. Ismailov	
"HOZIRGI RAQAMLI ASRDA STARTAPLARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI"	459
Sultonov Omon Juma o'g'li	
MA'LUMOTLARNI TOZALASH VA OPTIMALLASHTIRISHNING STATISTIK USULLARI	463
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI	467
Meliev Isroil Ismoilovich	



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAYYORLANGAN MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI O'TKAZISH XUSUSIYATLARI

Meliev Isroil Ismoilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,

iqtisodiyot fanlari doktori

Email: melievisroil1981@gmail.com

ORCID: 0000-0002-0976-7406

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekistonda xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot auditini o'tkazish xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda mazkur mavzuni tadqiq etishning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobot auditini tashkil etish xususiyatlari, MHXS va AXSlarni amaliyotga joriy etishda erishiladigan imkoniyatlar, moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin amalga oshirilgan muomalalar auditi jarayonida o'rganiladigan masalalar, parallel hisob yuritish (konversiya) va transformatsiya usullarida tayyorlangan moliyaviy hisobot auditining farqli jihatlari hamda mazkur jarayonni takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobot auditi, auditning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot standartlari, firibgarlik, moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish, moliyaviy hisobotda xato va kamchiliklar, moliyaviy hisobot ishonchiligi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar, parallel hisob yuritish (konversiya) usuli, transformatsiya usuli.

Abstract: This article is devoted to the features of conducting an audit of financial statements prepared in accordance with international standards in Uzbekistan, in which the relevance of studying this topic, the level of study, the features of organizing an audit of financial statements prepared in accordance with international standards, the opportunities achieved in the implementation of IFRS and AAS in practice, issues to be studied in the process of auditing transactions made after the date of preparation of financial statements, the differences in the audit of financial statements prepared using parallel accounting (conversion) and transformation methods, and practical recommendations for improving this process are formulated.

Keywords: Financial statement audit, international auditing standards, international financial reporting standards, financial reporting standards, fraud, misrepresentation of financial statements, errors and omissions in financial statements, reliability of financial statements, users of financial statements, parallel accounting (conversion) method, transformation method.

Аннотация: Данная статья посвящена особенностям проведения аудита финансовой отчетности, составленной в соответствии с международными стандартами, в Узбекистане, в которой сформулированы актуальность изучения данной темы, уровень исследования, особенности организации аудита финансовой отчетности, составленной в соответствии с международными стандартами, возможности, достигнутые при практическом применении МСФО и МСА, вопросы, которые необходимо изучить в процессе аудита операций, совершенных после даты составления финансовой отчетности, различия в аудите финансовой отчетности, составленной с использованием методов параллельного учета (конверсионного) и трансформационного учета, а также практические рекомендации по совершенствованию этого процесса.

Ключевые слова: Аудит финансовой отчетности, международные стандарты аудита, международные стандарты финансовой отчетности, стандарты финансовой отчетности, мошенничество, искажение финансовой отчетности, ошибки и упущения в финансовой отчетности, достоверность финансовой отчетности, пользователи финансовой отчетности, метод параллельного учета (конверсионный), метод трансформационного учета

KIRISH

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qaroriga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda MHXS) asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishlari va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari belgilab qo'yilgan. Biroq mazkur sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, MHXS asosida moliyaviy hisobotni shakllantirish va ular auditini o'tkazish bo'yicha e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar mavjud.

Mazkur soha bo'yicha audit tizimi oldidagi o'z yechimini kutayotgan masalalar shundan iboratki, MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobot qanday tartibda auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi va buni amalga oshirish uchun auditorlar qanday malaka talablariga javob berishi lozim kabi jihatlar e'tibor qaratish talab etilmoqda. O'z navbatida O'zbekiston auditorlik amaliyotida 2021 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning 29-moddasiga muvofiq "auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir auditning xalqaro standartlari (keyingi o'rinlarda AXS) talablari to'g'risidagi, auditorning e'tirozlariga asos bo'lgan qonunchilik hujjatlari normalari haqidagi axborotni xo'jalik yurituvchi sub'ektning so'roviga binoan taqdim etish" majburiyati hamda mazkur qonunning 33-moddasiga muvofiq auditorlik tashkilotlarining turdosh xizmatlari tarkibiga "buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, shu jumladan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish" xizmati kiritildi. Ta'kidlash joizki, ushbu masalaga Prezidentimiz tomonidan 2017-yilda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va auditning xalqaro standartlarini amaliyotga joriy etishning me'yoriy-huquqiy mezonlari belgilab berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, auditorning asosiy maqsadi auditorlik tekshiruvini buyurtmachisining moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini baholash hamda tekshiruv buyurtmachisiga moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligini ta'minlash bo'yicha maslahatlar yoki xalqaro standartlarga muvofiq turdosh xizmatlar ko'rsatishga ham qaratiladi. Iqtisodiy adabiyotlardan ma'lumki, moliyaviy hisobotning ko'rsatkichlari ishonchliligini ta'minlash borasida ko'plab iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar Ya.V.Sokolov va S.M.Bichkovalarning qarashlarida "moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi «true and fair view», ya'ni «ishonchli va vijdonli qarash» iborasini ilgari surib, mazkur tushunchalarni auditorlik xulosasining ishonchliligi bilan bog'laydi. Shuningdek, tadqiqotchilar moliyaviy hisobotda aks ettirilgan ma'lumotlar miqdoriy jihatdan yetarli bo'lmasa va sifati jihatdan mavjud va potensial foydalanuvchilarning oqilona taxminlariga javob bermasa, hisobot ishonchlilik va vijdonlilik talablariga javob bermaydi"46F[1].

Rus iqtisodchilari T.Yu.Drujilovskaya, T.N.Korshunova va A.A.Xodirevlarning fikrlariga ko'ra, "moliyaviy hisobotning ishonchliligi, unda taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi sifatida tushunilishi kerak, bu tashkilotning moliyaviy ahvoli va natijalarini aks ettiradi va hisobotlardan foydalanuvchilarga tashkilot to'g'risida to'g'ri iqtisodiy qaror qabul qilishga imkon beradi"47F[2].

Iqtisodchi olim Axmed al Dmur o'z tadqiqotlarida, "moliyaviy ma'lumotlar yuzasidan hisobotning ishonchliligi buxgalteriya hisobi va ichki nazorat axborot tizimlariga bevosita bog'liqligini tadqiq etgan [3].

Natavut Tontiset va Sirilak Kaivinut kabi olimlarning ta'kidlashicha, "moliyaviy hisobotning asosiy maqsadi iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydali axborotlarni taqdim etish, degan xulosaga kelgan. Moliyaviy hisobotning ishonchliligi esa iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali hisoblangan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish orqali aniqlanadi"49[4].

Yusuf Shaxvanning ta'kidlashicha, "moliyaviy hisobotning ishonchliligi iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ishonchli tayyorlangan hisobotlarga taalluqli hisoblanadi" [5]51F.

Iqtisodchi olim N.Sh.Xajimuratovning fikricha esa "moliyaviy hisobotlar ishonchliligiga normativ-huquqiy hujjatlardagi nomuvofiqliklar, miqdoriy va tahliliy ko'rsatkichlarning yetishmasligi, muomalalarni hujjatlarda to'liq aks ettirmaslik, ma'lumotlarni inkor etish va buxgalterlar malakasining pastligi kabi omillar ta'sir etadi" [6]51F.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor A.Z.Avlokulovning fikricha, xalqaro standartlar asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar tashkilotni samarali boshqarishda zarur hisoblanadi. Xalqaro standartlarga o'tishdan asosiy maqsad xalqaro bozorga chiqish hamda investitsiyalarni jalb etishdir. Shuningdek xalqaro standartlar mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan rivojlantirishga ham muhim hissa qo'shadi. Bu jarayonda qulay investitsion muhit, kompaniyalar faoliyati ochiqligi, boshqaruvning aksiyadorlar oldidagi hisobdorligi, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarining joriy qilinishi aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi [7].



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, kuzatuv, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda hozirgi davr auditining asosiy ob'ektlaridan biri bu MHXS asosida tuzilgan moliyaviy hisobot ishonchligining auditidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni va Prezidentning 2020 yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qaroriga muvofiq moliyaviy hisobotni shakllantirish davr talabiga aylandi. Shuningdek, MHXS asosida moliyaviy hisobotni shakllantirish masalalari V.F.Paliy, S.N.Tashnazarov, A.N.To'raev, X.Abidov va S.Ya.Hamidova kabi iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qaroriga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslar buxgalteriya hisobini MHXS asosida yuritishi, ya'ni, moliyaviy hisobotni MHXS qoidalari asosida shakllantirishi belgilangan. Bu esa yuqoridagi sub'ektlarda auditor tomonidan moliyaviy hisobotni MHXS me'yorlari asosida to'g'ri shakllantirilganligini o'rganishni talab etadi va auditorlik tashkilotlari tomonidan esa MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzish kabi yangi turdosh xizmatiga bo'lgan talabni oshiradi.

Bizningcha, hozirgi davr hisob va audit amaliyotida MHXS va AXSlarni amaliyotga joriy etish va ularni qo'llanilmasligi oqibatida yuzaga keladigan muammolar, moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirishning uslubiy masalalarini o'rganish, MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va ularni auditning xalqaro me'yorlariga muvofiq auditorlik tekshiruvdan o'tkazish masalalarini o'rganilmasligi hisob tizimining moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z muddatida bajarilishiga salbiy ta'sir etadi. Fikrimizcha, MHXS va AXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda ular auditini amalga oshirilishini ta'minlash xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va auditorlik tashkilotlari faoliyati uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi(1-jadval).

1-jadval. MHXS va AXSlarni amaliyotga joriy etishda erishiladigan imkoniyatlar¹


№	MHXS va AXSni qo'llanilishi natijasida erishiladigan imkoniyatlar
1	Faoliyat natijalarining ochiq(shaffof)ligi darajasini yanada oshirish imkoniyati
2	Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni unda aks ettirilgan axborotlarni davriy oraliqlar hamda turli korxonalar bo'yicha ko'rsatkichlarga ajratgan holda tahlil qilish
3	Investorlar, aksiyadorlar va kreditorlarning korxona moliyaviy faoliyatiga ishonchi ortib, korxonaga sarmoya kiritish hamda kredit ajratish kabi imkoniyatlar darajasining kengayishi
4	Xalqaro talablarga muvofiq keluvchi axborotdan foydalanilishi natijasida korxonada xorijiy investorlar bilan hamkorlik imkoniyatlari kengayib, ular faoliyatiga chetdan investitsiyalar oqimini kuchayishi
5	Xalqaro me'yorlarga muvofiq keluvchi moliyaviy axborotlarni shakllantirilganligi tufayli korxonaning xalqaro munosabatlar, turli birjalar va xalqaro kapital bozori ishtirokchisiga aylanishi
6	Korxona ta'sischi va boshqaruv rahbariyatini samarali qarorlari uchun ishonchli, ob'ektiv va tizimli moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash imkonini yuzaga keltiradi
7	Korxona faoliyatini moliyaviy jihatdan rejalashtirish va uning kelgusi faoliyati rivojlanishini oldindan baholash uchun zarur axborotlar bilan ta'minlash imkoniyati
8	Korxona boshqaruv tartibini takomillashtirish, uning mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sifatini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish orqali uning bozorda raqobatbardoshligini yanada oshirish
9	Korxona faoliyatida korrupsiya, suiste'mol, mulk va mablag'larni talon-taroj qilish yoki o'z manfaati yo'lida foydalanish, daromad(foйда)ni yashirish va bankrotlik holatlarini kamaytirish
10	Ishonchli axborotlardan foydalanilishi va boshqaruv qarorlarini qabul qilinishi natijasida rag'batlantirish va faoliyatdan manfaatdorlik darajasini oshirish
11	Korxona boshqaruvida ishonchli va kafolatli axborotlardan foydalanilishi natijasida samarali nazorat tizimi shakllanib, korxona ishchi va xizmatchilarida korxona faoliyatiga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o'zgarishi
12	Korxona ishchi va xizmatchilarida o'z kasbiy malakasini oshirishga nisbatan ijobiy munosabat va qiziqish kuchayishi va boshqalar

1 Muallif tomonidan tayyorlangan

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, hisob va audit tizimida xalqaro standartlardan foydalanish auditorlardan xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish uslubi-yatini to'liq o'zlashtirishni talab etib, auditor moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirish va MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzish kabi ikki turdagi asosiy xizmatni amalga oshirishi bugungi davr talabi hisoblanadi. Qolaversa Prezidentning PQ-4611-son qarorini qabul qilinishi, auditor bir paytning o'zida ikki turdagi xizmatlarni ya'ni auditorlik tekshiruvini amalga oshirish xizmati va milliy qonunchilikka muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotni moliyaviy MHXS talablariga moslashtirish (transformatsiya) xizmatiga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu esa auditorlardan MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash va uning auditi jarayoni bo'yicha xalqaro standartlar talablarini to'liq o'zlashtirishni talab etmoqda.

Ma'lumki, auditorlik tashkilotlari nafaqat moliyaviy hisobot auditi bilan shug'ullanishi, balki amaldagi qonunning 31-moddasiga muvofiq "Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va turdosh xizmatlari turidagi auditorlik xizmatlarini" ko'rsatishlari mumkin [8]. Mazkur auditorlik xizmatlarini ko'rsatishni tartibga solish masalalari 800-sonli "Maxsus masalalar – maxsus maqsadli asoslarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar auditi" va 805-sonli "Maxsus masalalar – ayrim moliyaviy hisobotlar hamda moliyaviy hisobotning maxsus elementlari, schyotlari yoki moddolari auditi" nomli auditning xalqaro standartlari me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Ko'rinadiki, korxona moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar tomonidan korxona faoliyati to'g'risidagi maxsus masalalar bo'yicha moliyaviy hisobot yoki korxona faoliyatidagi ularni qiziqtirgan, manfaatli masalalar bo'yicha hisobot (axborot) talab etiladi. Mazkur maxsus masalalar bo'yicha ishonchli va kafolatli axborot bilan ta'minlovchi vakolatli tashkilot auditorlik tashkilotlari hisoblanadi.

Auditorlik amaliyotida munozara (bahs)li bo'lgan, biroq jiddiy e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan holatlardan biri moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalarni baholash jarayonidir. Mazkur baholash jarayoni 560 son "Keyingi hodisalar" nomli auditning xalqaro standarti me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bizningcha, auditorlik tekshiruvida moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin amalga oshirilgan muomalalar auditi jarayonida 1-rasmga keltirilgan masalalar o'rganiladi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyin amalga oshirilgan muomalalar auditi jarayonida o'rganiladigan masalalar²

Moliyaviy hisobot auditi amaliyotida firibgarlik(fraud), moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish (misrepresentation of financial statements) va xato (error) kabi atamalaridan keng foydalaniladi. Auditda firibgarlik yoki xato tushunchalari mazmuni o'rtasidagi asosiy farqlovchi belgi bu ataylab (qasddan) yoki atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish holati hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki moliyaviy hisobot auditida firibgarlik

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



deganda moliyaviy hisobotni atayin buzib ko'rsatish harakatlarini anglatuvchi yuridik tushuncha tushunilsa, xato deganda esa moliyaviy hisobotdagi atayin (qasddan) qilinmagan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish harakatlari tushuniladi. Demak auditda firibgarlikni aniqlash (fosh etish) xatoni aniqlash jarayonidan muhimroq sanaladi.

Bizningcha, auditor parallel hisob yuritish (konversiya) yoki transformatsiya usullarida MHXSga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni o'rganishda quyidagi jihatlarga jiddiy e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval. Parallel hisob yuritish (konversiya) va transformatsiya usullarida tayyorlangan moliyaviy hisobot auditining farqli jihatlari³

№	Konversiya yoki parallel hisob yuritish usuli	Transformatsiya usuli
1	Amalga oshirilgan muomalalarning normativ-huquqiy hujjatlar me'yorlariga muvofiqligini o'rganish	Pulda baholangan muomalalarning normativ-huquqiy hujjatlar me'yorlariga muvofiqligini o'rganish
2	Amalga oshirilgan muomalalar, korxona mulki va mablag'larni BHMS talablariga muvofiq hisobga olinganligi, turkumlanganligi, miqdor va sifat jihatdan to'g'ri baholanganligi va ro'yxatga olinganligini o'rganish	Amalga oshirilgan muomalalar, korxona mulki va mablag'larni MHXS talablariga muvofiq hisobga olinganligi, turkumlanganligi, miqdor va sifat jihatdan to'g'ri baholanganligi va ro'yxatga olinganligini o'rganish
3	Amalga oshirilgan muomalalar, korxona mulki va mablag'larini BHMS talablari asosida buxgalteriya schyotlari va hujjatlarida to'g'ri aks ettirilganligini o'rganish	Amalga oshirilgan muomalalar, korxona mulki va mablag'larini MHXS talablari asosida buxgalteriya schyotlarida to'g'ri umumlashtirilganligi hamda treyl balans va ishchi jadvallarda to'g'ri hujjatlashtirilganligini o'rganish
4	Moliyaviy hisobotni BHMSda belgilangan shakl va muddatlarga muvofiq tayyorlanganligi hamda taqdim etilganligini o'rganish	Moliyaviy hisobotni MHXSda belgilangan shakl va muddatlarga muvofiq tayyorlanganligi hamda taqdim etilganligini o'rganish
5	Auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha auditning xalqaro standartlariga muvofiq auditorlik xulosasini tayyorlash va taqdim etish	Auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha auditning xalqaro standartlariga muvofiq auditorlik xulosasini tayyorlash va taqdim etish

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko'rinadiki, auditor tomonidan MHXS asosida transformatsiya usulida tayyorlangan moliyaviy hisobot konversiya yoki parallel usulda tayyorlangan moliyaviy hisobotga nisbatan buxgalter tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilmagan mustaqil yondashuv asosida bajarilganligi, transformatsiya jarayonining murakkabligi va auditoridan ko'p vaqt hamda mehnat talab etganligi inobatga olinishi zarur. Fikrimizcha, moliyaviy hisobotni MHXS asosida transformatsiya qilishning yagona uslubiyatining mavjud emasligi har bir korxona moliyaviy hisobot transformatsiyasi bo'yicha hisob siyosatini ishlab chiqish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Bu esa audit buyurtmachisida moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirish uchun yetarli darajada shart-sharoit(talab, ehtiyoj)lar mavjudligi auditor tomonidan o'rganilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi davr hisob va audit amaliyotida MHXS va AXSlarni amaliyotga joriy etish va ularni qo'llanilmasligi oqibatida yuzaga keladigan muammolar, moliyaviy hisobot transformatsiyasini amalga oshirishning uslubiy masalalarini o'rganish, MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va ularni auditning xalqaro me'yorlariga muvofiq auditorlik tekshiruvdan o'tkazish masalalarini o'rganilmasligi hisob tizimining moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini to'liq va o'z muddatida bajarilishiga salbiy ta'sir etadi.

Auditor tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisoboti ishonchligini o'rganishdan avval, tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisobotini buxgalteriya hisobi usul va tamoyillariga muvofiq amalga oshirilayotganligi, tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy ko'rsatkichlari moliyaviy hisobotda boshlang'ich qiymat, xarid qiymati, sotish qiymati, diskontlangan qiymat va balans qiymatlarida to'g'ri aks ettirilganligi hamda moliyaviy hisobotni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va buxgalteriya hisobi standartlari me'yorlariga muvofiq tuzilganligini o'rganishi maqsadga muvofiq.

Firibgarlik va xatolardan xoli bo'lgan ko'rsatkichlar asosida shakllantirilgan hisobot ishonchli hisobotdir. Korxona faoliyatining qonuniyligi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchligini baholash esa auditorning asosiy majburiyati hisoblanadi. Bu esa auditoridan korxona moliyaviy hisobotida aniqlangan xato va firibgarlik holatlarining mazmunini, shakllanish sabablarini, firibgarlik va xatoning moliyaviy hisobotga ta'sirini hamda



aniqlangan moliyaviy hisobotni buzib ko'rsatish holatlarini bartaraf etish yoki ularni kelgusida takrorlanmasligi yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi.

Moliyaviy hisobot auditi jarayonida auditorni amaldagi Qonun va qonunosti me'yoriy hujjatlariga rioya etish va o'rganilayotgan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari ishonchliligini baholashda mazkur me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilganligini baholashi talab etiladi. Auditorlik tekshiruvda tekshirilayotgan sub'ekt moliyaviy hisobotiga amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar talablarining konseptual asos sifatida ta'siri jiddiy bo'lishi yoki auditorni tekshiruvni amalga oshirishda amaldagi mavjud qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar me'yorlariga muvofiq harakat qilishi talab etiladi. Moliyaviy hisobot auditi jarayonida auditor moliyaviy hisobotni shakllantirish bo'yicha konseptual asos talablariga rioya etilganligiga asosiy e'tibor qaratishi zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki bugunga qadar moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalarni aniqlash va bu haqida auditorlik xulosasi(fikr)ini shakllantirish tartibi yaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, o'quv adabiyotlari va tadqiqotlarda yetarlicha yoritilmaganligi (birgina moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalar nomli milliy standartdan boshqa me'yoriy hujjat ishlab chiqilmagan)ligi ma'lum bo'ldi. O'z navbatida majburiy audit yakunida o'rganilayotgan hisobot davri tugagan va auditorlik xulosasi imzolanadigan sanagacha yoki xulosa rasmiylashtirilgandan keyingi davrda aniqlangan o'rganilayotgan hisobot davriga aloqador bo'lgan muomalalar to'g'risidagi axborotlar ishonchligini baholash auditor majburiyatlaridan sanaladi yoki ushbu masalani auditorlar tomonidan o'rganilmasligi moliyaviy hisobot ishonchliligiga jiddiy ta'sir etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Соколов Я.В., Бычкова С.М. Достоверность и добросовестность составления бухгалтерской отчетности // Бухгалтерский учет. 1999. № 12. С. 87-90
2. Дружиловская Т.Ю., Коршунова Т.Н., Ходырев А.А. Принципы учетной политики и достоверность отчетной информации как ее цель // Международный бухгалтерский учет. 2013. № 24. С. 2-16
3. Ahmed Al-Dmour. The impact of the reliability of the accounting information system upon the business performance via the mediating role of the quality of financial reporting. // The International Journal of Accounting and Business Society. Vol. 26 No.1 August 2018
4. Nattawut Tontiset, Sirilak Kaiwinit. The Factors Affecting Financial Reporting Reliability: An Empirical Research of Public Listed Companies in Thailand. //Journal of Modern Accounting and Auditing, June 2018, Vol. 14, No. 6. p 291-304
5. Shahwan Yusuf. Qualitative characteristics of financial reporting: A historical perspective. Journal of Applied Accounting Research. 9(3), 2008. p 192-202.
6. N.Sh.Xajimuratov. "Moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash yo'nalishlari". "Iqtisod va moliya" jurnali. 2020/3, 72-77 betlar.
7. Avlokulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini aks ettirish xususiyatlari.// «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.
8. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-677-son qonuni. <https://lex.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100